

AYDAR–ARNASOY KO‘LLAR TIZIMIDA EKOTIZIM XIZMATLARIDAN FOYDALANISH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQUISH

Umarova Umida Mamirovna

Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy tadqiqot instituti.

Electron pochta:umarovaumida668@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Aydar–Arnasoy ko‘llar tizimi hududida ekotizim xizmatlarining turlari, ularning hozirgi holati hamda ulardan barqaror foydalanish mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, hududda biologik xilma-xillikni saqlash, baliqchilik resurslaridan oqilona foydalanish va ekoturizmni rivojlantirish orqali ekologik-iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash mumkin. Strategiya ekologik monitoring, huquqiy mexanizmlar va mahalliy aholi ishtirokiga asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *Aydar-arnasoy ko‘llar tizimi, ekotizim xizmatlari, barqaror rivojlanish, biologik xilma-xillik, ekoturizm, suv resurslari, ekologik monitoring, baliqchilik xo‘jaligi.*

Abstract: *This article analyzes the main types of ecosystem services in the Aydar–Arnasoy lake system, their current status, and the mechanisms for their sustainable use. According to the results of the study, it is possible to ensure ecological and economic sustainability in the region by preserving biodiversity, rational use of fishery resources, and development of ecotourism. The strategy is based on environmental monitoring, legal mechanisms, and participation of local residents.*

Keywords: *Aydar–Arnasoy lake system, ecosystem services, sustainable development, biodiversity, ecotourism, water resources, environmental monitoring, fisheries management.*

Kirish

Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi Jizzax va Navoiy viloyatlari hududida joylashgan. Ko‘llar tizimi XX asrning 2 yarmida shakllangan bo‘lib mazkur tizim respublikaning muhim gidrologik va ekologik obyektlaridan biri hisoblanadi. 1969 yilda Chordara suv omboridan Arnasoy past tekisligiga 21 km³ suvning yo‘naltirilishi, hamda qishloq xo‘jalik ekinlarini sug‘orish natijasida hosil bo‘lgan yer osti suvlarining kollektor-drenaj tizimi yordamida hosil bo‘lgan oqova suvlar hisobiga paydo bo‘lgan suv havzasidir. Keyingi yillarda ham davriy ravishda suv tashlamalari amalga oshirilgan va natijada ko‘llar tizimi kengayib borgan. 1993 yildan Chordaradan suv chiqarish yana kuchaygach, suv sathi 8,7 metrga ko‘tarildi. Hozirgi vaqtda uning umumiy suv yuzasining maydoni 369,8 ming gektarni tashkil etadi, shundan Jizzax viloyatiga 210 ming gektar, Navoiy viloyatiga 110 ming gektar to‘g‘ri keladi.

Aydar bo‘limiga 251,8 ming gektar, Tuzkon bo‘limiga 56 ming gektar, Arnasoy bo‘limiga 62 ming gektarni to‘g‘ri keladi. Hozirda Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi (AAKT) O‘zbekiston Respublikasining yangi, eng yirik ko‘l tizimlaridan hisoblanadi va Aydarko‘l, Tuzkon hamda Yuqori Arnasoy ko‘llarini o‘ziga birlashtiradi.

So‘nggi yillarda suv sathi yiliga o‘rtacha 30–35 sm pasayib bormoqda, suv mineralizatsiyasi esa 5,07 g/l dan 8,59 g/l gacha oshgan. Bunday o‘zgarishlar ekotizimning

biologik mahsuldorligiga sezilarli ta’sir ko’rsatmoqda. Masalan, 1980-yillarda yillik baliq ovlash hajmi 8–10 ming tonna bo’lgan bo’lsa, 2022-yilga kelib bu ko’rsatkich 3,4 ming tonnagacha kamaygan. Ushbu tendensiyalar tabiiy jarayonlar bilan bir qatorda xo’jalik faoliyatining intensivligi, suv sifatining yomonlashuvi va gidrokimyoviy muvozanatning buzilishi bilan ham izohlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-fevraldagi PQ-141-son qarorida “Aydar–Arnasoy ko‘llar tizimi” MCHJ faoliyatini qayta tashkil etish, integratsiyalashgan suv resurslari boshqaruvini joriy etish, baliqchilik va ekoturizm infratuzilmasini rivojlantirish, shuningdek, qirg‘oqbo‘yi zonalarini ekologik muhofaza qilish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlar belgilangan. Mazkur qaror hududning ekologik-iqtisodiy salohiyatini oshirishga xizmat qilishi bilan birga, belgilangan vazifalarni to‘liq ijro etish va ilmiy asoslangan boshqaruv mexanizmlarini joriy etishga bevosita bog‘liqdir.

Mazkur ko‘llar majmuasi nafaqat tabiiy resurs manbai, balki mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim omildir. Hozirgi vaqtda iqlim o‘zgarishi, antropogen bosim hamda suv rejimining o‘zgarishi ekotizim xizmatlarining kamayishiga sabab bo‘lmoqda. Shu bois hududda ekotizim xizmatlaridan foydalanishning ilmiy asoslangan strategiyasini ishlab chiqish zarur.

Aydar-arnasoy ko‘llar tizimida tadqiqot jarayonida quyidagi usullardan foydalaniladi:

- Tizimli tahlil va taqqoslash usuli;
- Statistik ma’lumotlarni umumlashtirish;
- Ekologik monitoring natijalarini tahlil qilish;
- Hududiy rivojlanish konsepsiyalarini o‘rganish.



1-rasm. Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi

Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi Qozog'istonning “Chordara” suv ombori va mahalliy kollektor hamda drenajlarning oqova suvlaridan to'yinadi. Yillar davomida ko'lga toza suv kirmaganligi sababli sho'rlanish darajasi yuqorilashib, baliqlarning tabiiy ko'payishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mamlakatimizda tabiatni, tabiat boyliklarini saqlash to'g'risidagi qonunlar asosida ko'llar tizimining fauna va florasini ilmiy asosda o'rganish va asrash, undan xalqimiz farovonligi yo'lida foydalanishda keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmogda. Aydar-Arnasoy ko'llar tizimining ekologik barqarorligini ta'minlash, iqtisodiy samaradorligini oshirish va xalqaro miqyosda raqobatbardosh turizm hamda tabiiy resurslar boshqaruv tizimini yaratishga xizmat qiladi.

Hududda asosiy ekotizim xizmatlar quyidagilar:

- Ta'minlovchi xizmatlar: baliq mahsulotlari, yaylov va suv resurslari.
- Tartibga soluvchi xizmatlar: mikroiklimni me'yorlashtirish, suv balansini barqarorlashtirish.
- Madaniy xizmatlar: rekreatsiya, turizm, ilmiy tadqiqot imkoniyatlari.
- Qo'llab-quvvatlovchi xizmatlar: biologik xilma-xillikni saqlash va oziq zanjiri barqarorligi.

2. Asosiy ekologik muammolar

- Suv sathining keskin o'zgarishi;
- Sho'rlanish jarayonining kuchayishi;
- Noqonuniy baliq ovlash;
- Qirg'oq hududlarining degradatsiyasi.

3. Strategik yo'nalishlar

- Suv resurslarini integratsiyalashgan boshqarish (IWRM);
- Baliqchilikka kvota tizimini joriy etish;
- GIS va masofaviy monitoring texnologiyalaridan foydalanish;
- Ekoturizm infratuzilmasini rivojlantirish;
- Mahalliy aholi ishtirokini kengaytirish.

Xulosa

Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi va uning atrof-muhitga ko'rsatayotgan ta'siri eng aktual muammolardan biri bo'lganligi sababli, Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi va uning qirg'oq mintaqalarini o'rganishda ilmiy asosda to'plangan hamma materiallar tartibga solinadi va tadqiqotlar natijasida ro'y berayotgan jarayonlarni ko'rsatuvchi modellar tuziladi.

Aydar-Arnasoy ko'llar tizimida ekotizim xizmatlaridan samarali foydalanish barqaror rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi. Ilmiy asoslangan boshqaruv strategiyasi orqali hududning ekologik barqarorligi saqlanadi, iqtisodiy samaradorlik oshadi va mahalliy aholi farovonligi yaxshilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzacho'l Ekoturizm Klasteri Hisoboti. (2021). Tuzkon ko'li va atrof hududlarda ekoturizm infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha tahliliy hisobot. Jizzax viloyati Turizm boshqarmasi arxivi.

2. Ramsar Convention Sekretariat. (2018)Global Wetland Outlook. Gland, Switzerland.
3. O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi(2022) Suv resurslarini boshqarish bo‘yicha yillik hisobot.Toshkent.
4. Ziyatovna, Y. Z., Tojimurodovna, A. Y., & Akhmedovna, S. S. (2021). The Concept and Principles of Nature Pollution Monitoring. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 1038-1043.
5. 13. Akhmadjonova, U. T., Akhmadjonova, Y. T., & Yakhshieva, Z. Z. (2021).Technogenic Transformations of the Aidar-Arnasay Lake System and Their Geological Consequences. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 3271-3275.
6. Ravshanova, M. X. (2023). Aydar–Arnasoy ko‘llar tizimida bioxilma-xillikni saqlashning ekologik asoslari. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish ilmiy jurnali
7. Fўдалов, М. Р. (2021). Ўзбекистон ички сув ҳавзаларида балиқчилик ресурсларини баҳолаш ва бошқариш усуллари. Тошкент: Фан ва технология.
8. Millennium Ecosystem Assessment (MEA). (2005). Ecosystems and Human Well-being: Synthesis. Washington, DC: Island Press.
9. “Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi” MCHJ statistik hisobotlari. (2023). Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligi.
10. Saipova, N. (2024). Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi suv mineralizatsiyasi va gidrokimyoviy xususiyatlari. O‘zbekiston ekologik jurnali, 2(14), 45–53.